



UDK: 32.019.5:316.42

*Nargiza SALIYEVA,*  
*PhD, dotsent, Jizzax shahridagi Sambhram universiteti*  
*E-mail: nagisalieva@gmail.com, ORCID: 0009-0006-7867-3979*

*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi professori, s.f.d F.Jo‘raqulov taqrizi asosida*

## GLOBALLASHUV JARAYONLARINING JAMIYAT IDEOSFERASIGA TA’SIRI VA RIVOJLANISH YO‘NALISHLARI

Аннотация

Mazkur maqolada globallashuv jarayonlarining jamiyat ideosferasiga ko‘rsatayotgan ta’siri va uning rivojlanish yo‘nalishlari bayon qilingan. Shuningdek, maqolada axborotlashgan jamiyat sharoitida shakllanayotgan o‘ziga xos, tizimlashmagan axborot makoni haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Globallashuv, axborotlashgan jamiyat, virtuallik, manipulyatsiya, yolg‘on axborot (feyklar), axborot urushi, mafkuraviy raqobat, jamiyat ideosferasi va boshqalar.

## ВЛИЯНИЕ ПРОЦЕССОВ ГЛОБАЛИЗАЦИИ НА ИДЕОСФЕРУ ОБЩЕСТВА И НАПРАВЛЕНИЯ ЕЁ РАЗВИТИЯ

Аннотация

В данной статье описывается влияние процессов глобализации на идеосферу общества и направления её развития. Также рассматривается своеобразное, несистематическое информационное пространство, формирующееся в условиях информационного общества.

**Ключевые слова:** Глобализация, информационное общество, виртуальность, манипуляция, ложная информация (фейки), информационная война, идеологическая конкуренция, общественная идеосфера и т. д.

## THE IMPACT OF GLOBALIZATION PROCESSES ON THE IDEOSPHERE OF SOCIETY AND ITS DEVELOPMENT TRENDS

Annotation

This article describes the impact of globalization processes on the ideosphere of society and the directions of its development. The article also discusses the peculiar, unsystematic information space that is being formed in the conditions of an information society.

**Key words:** Globalization, information society, virtuality, manipulation, false information (fake news), information warfare, ideological competition, social ideosphere, etc.

**Kirish.** XXI asrda jahon mafkuraviy manzarasini shakllantirayotgan asosiy mezonlar bilan mafkuraviy transformatsiya jarayonlarining o‘zaro chambarchas bog‘liqligi global muammolarning mazmuni va xususiyatini belgilab bermoqda. Bugungi kunda mafkuraviy omillar va ularning o‘zgaruvchan dinamikasi jahon miqyosidagi muammolarning kelib chiqishi, rivojlanish yo‘nalishlari hamda jamiyat hayotiga ta’sir ko‘rsatish darajasini aniqlovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. “Globallashuv fenomeni haqida gapirganda, bu atama bugungi kunda ilmiy-falsafiy, hayotiy tushuncha sifatida juda keng ma’noni anglatishini ta’kidlash lozim”[1], - degan edi O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov.

Globallashuv jarayonlari ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga ta’sir ko‘rsatayotgani kabi, mafkuraviy sohada ham qadriyatlar tizimi va tasavvurlarning mazmunan yangilanishiga sabab bo‘lmoqda. Ayni shu sharoitda odamlar, turli ijtimoiy guruhlar va jamoalar ongida shakllangan g‘oyaviy qarashlar majmuasida ideosfera fenomenining o‘rni va ahamiyati turlicha talqin etilayotgani tabiiy holdir. Zero, zamonaviy sivilizatsiya yuksak axborot texnologiyalari va kompyuter tizimlariga tayangan holda rivojlanib, axborotlashuv hamda globallashuv jarayonlari natijasida mutlaqo yangi virtual va ijtimoiy makonni vujudga keltirdi. Axborotlashgan turdagi jamiyatga o‘tish ideosfera mavzusi uchun hali to‘liq o‘rganilmagan ko‘plab, sifat jihatdan butkul yangi muammolarni vujudga keltirdi. Bunday masalalardan biri jamiyatni axborotlashgan

rivojlanishi jarayonida g‘oyaviy makonning o‘zgarishi muammosidir.

U insoniyat rivojlanishining tarixiy tajribasi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning chuqurlashuvi hamda axborot-kommunikatsiya imkoniyatlarining kengayishi bilan uzviy bog‘liqdir. Ayni paytda “globallashuv inson hayoti va faoliyatining iqtisodiy, siyosiy, madaniy, axborot va ma’naviy sohalarida tub va keng qamrovli o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Shu ma’noda, mazkur jarayon nafaqat integratsiya va hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirmoqda, balki jamiyat taraqqiyotining yo‘nalishlari va mazmuniga ta’sir etuvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda”[2].

Hozirgi davr, ya’ni XXI asr – axborot va raqamli texnologiyalar asri sifatida tavsiflanadi. Bugungi kunda jamiyat barcha jabhalarda axborot texnologiyalaridan foydalanadigan, ya’ni axborotlashgan jamiyat ga aylandi. Axborot texnologiyalarining ommalashuvi faqat iqtisodiy yoki ijtimoiy sohalarga emas, balki jamiyatning ideosferasi — ya’ni g‘oyaviy, ma’naviy va fikriy muhitiga ham katta ta’sir ko‘rsatmoqda.

Zamonaviy jamiyat ideosferasi axborot bilan to‘lishga bog‘liq holda ko‘p jihatdan o‘z mazmunini o‘zgartirmoqda. Endilikda shaxs va voqe‘lik o‘rtasida ommaviy kommunikatsiyalar tomonidan shakllantiriladigan “qiyofali vositachilar”ning ulkan miqdori vujudga kelmoqda. Ushbu holat bizning postmodernistik tafakkurga va uning asosidagi ideosferaga murojaat qilishimizni belgilab beradi. Ana shu

istiqbol nuqtayi nazaridan qaralganda, zamonaviy shaxsning ijtimoiy tajribasi va dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatuvchi obrazli vositachilar, ya'ni turli ma'naviy-mafkuraviy xosilalarni shakllantirishda ommaviy kommunikatsiya vositalarining o'rni tobora kuchayib bormoqda. Bugungi kunda aynan ommaviy axborot maydoni inson ongiga ta'sir o'tkazishda eng samarali va keng qamrovli imkoniyat sifatida baholanmoqda. Shu bois ushbu jarayonlarga ilmiy va publitsistik jihatdan jiddiy e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Mazkur tendensiya global miqyosdagi ko'plab mamlakatlarda kuzatilayotgan bo'lib, u ijtimoiy ong, qadriyatlar tizimi va shaxs kamolotiga o'zgacha ta'sir ko'rsatmoqda.

Ayniqsa, "ommaviy kommunikatsiyalarning jadal rivojlanishi natijasida yuzaga kelayotgan bu ta'sirlar bizning respublikamiz hayotida ham yaqqol namoyon bo'lib, jamiyat taraqqiyoti va ma'naviy muhit shakllanishiga bevosita daxl etmoqda"[3].

Axborotlashgan jamiyat sharoitida shakllanayotgan o'ziga xos, tizimlashmagan axborot makoni turli manbalardan kelib tushayotgan, ishonch darajasi bir xil bo'lmagan ma'lumotlar bilan jadal sur'atda to'ldirilmoqda. Natijada axborot oqimida tartib va saralash etishmasligi kuzatilib, bu holat jamiyat ongi va ijtimoiy fikr shakllanishiga muayyan murakkabliklar tug'dirmoqda. Shu ma'noda, axborotning mazmuni, manbasi va ishonchligini tahlil qilish hamda tanqidiy qabul qilish masalasi zamonaviy ilmiy-publitsistik muhokamalarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Internetdan tarqatilayotgan axborot bilan ishlashda tanqidiylik va sinchkovlik qilib o'tirmagan holda zamondoshimiz o'z hayoti va faoliyatini shubhali dalillarning mo'rt poydevori ustiga qurmoqda, Bu jarayonda u "internetdan olingan" deb hisoblanadigan va tekshirilmagan (yoki qo'pol qalbakilashtirilgan) xabarlarni ahamiyatli va ishonchli, deb hisoblayotgan yoshlar tafakkurida g'oyaviy immunitetni mustahkamlash bugungi kunning dolzarb masalasi ekanligini bildirmoqda.

Bugun "virtuallik" tushunchasi eng so'nggi multimedial audiovizual hamda kompyuter texnologiyalari imkoniyatlari bilan chambarchas bog'liq holda talqin etilmoqda. Mazkur texnologiyalar yordamida inson ongida mutlaq ishonchlik qabul qilinadigan, real tajribaga yaqin illyuzor tasavvurlar yaratish imkoni paydo bo'lmoqda. Natijada virtual makon nafaqat axborot almashinuvi vositasi, balki shaxs dunyoqarashi, ijtimoiy tajribasi va mafkuraviy yo'nalishlarini shakllantiruvchi muhim omilga aylanib bormoqda. Bundan media axborotlariga ko'r ko'rona ishonuvchi va bu axborot ta'sirida o'z fikrini keskin o'zgartiruvchi kishi ongini o'ziga sezdirmay boshqarish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanilayotgan ideosferaviy tasavvurlar kelib chiqadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari inson yashab turgan voqelikni tubdan yangilab, jamiyat hayotiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Axborot tarqatish tezligi va qamrovining kengayishi natijasida OAV nafaqat voqelikni aks ettiruvchi, balki jamiyat ongi, ijtimoiy munosabatlar va qadriyatlar tizimini shakllantiruvchi muhim omilga aylanib bormoqda. Ammo ushbu ta'sir xususiyati ziddiyatli va ba'zan esa qarama-qarshi baholashlarni vujudga keltirmoqda. Bu jarayon natijasida turli jamiyat vakillari o'rtasidagi masofa qisqarib, o'zaro muloqot va anglashuv ancha osonlashmoqda. Axborot almashinuvining tezkorligi va ommaviyligi odamlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu ma'noda, ommaviy axborot vositalarining ta'sirini ilmiy asosda baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday holda inson "interfaol" subyektga aylangan holda, shunchaki xabarni qayta yetkazuvchi subyekt bo'lib qoladi, bu shaxsning yo'qotilishini, shaxsiy "Men"ning yo'qotilishini anglatadi. Shunday qilib,

bugungi ideosferali OAV modeli axborot modelidir. Natijada inson voqelikni bevosita emas, balki mediallyashgan tasvirlar orqali idrok eta boshlaydi.

Bu jarayonning yanada chuqurlashuviga texnologiyalar rivoji ham kuchli turtki bermoqda. Televideniye, kompyuter va internet orqali kirib kelayotgan ulkan axborot oqimi ostida qolgan insonlarda milliy ma'naviyat va umuminsoniy qadriyatlarining hayotbaxsh tamoyillariga bo'lgan qiziqishning pasayishi kuzatilmoqda.

Internetning zamonaviy jamiyat hayotida tutgan o'rni beqiyos bo'lib, u iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, texnik va boshqa ko'plab sohalar taraqqiyotini jadallashtiruvchi muhim omilga aylandi. Bugun global tarmoqning qudratini inkor etish mumkin emas, chunki u inson aqli, tafakkuri va bilim salohiyatining natijasi hamda ifodasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Internet axborot almashinuvi, muloqot va bilim olish imkoniyatlarini kengaytirib, insoniyat oldida yangi ufqlarni ochdi.

Shu bilan birga, uning ijobiy jihatlarini e'tirof etgan holda, Internet orqali insoniyat ma'naviyatiga yuzaga kelayotgan muayyan xavf-xatarlar haqida ham jiddiy fikr yuritish zarur. Ayrim kuchlar global tarmoqning axborotni tez va keng tarqatish imkoniyatlaridan foydalanib, jamoatchilik ongini chalg'itish, odamlarni turli nopok g'oya va manfaatlar sari yo'naltirishga urinayotgani sir emas.

Shu bois virtual makonda axborot madaniyatini shakllantirish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. "Online tizimi materiallarining ma'lum bir qismi asosan noxolis, shubhali ko'rinishda bo'lib, axloqiy buzulqilik, tajovuzkorlik va zo'rvonlikka undaydi. Kompyuter tizimlaridagi ma'lumotlarga ta'sir o'tkaza oladigan aniq huquqiy-me'yoriy hujjatlarning yo'qligi esa Internet sahifalarida ochiqdan-ochiq millatchilik, irqchilik va fashizm g'oyalari targ'ib etilib, behayolik va zo'rvonlik ko'rinishlari aks etgan suratlar, g'yohvand va portlovchi moddalarni tayyorlash bo'yicha ko'rsatmalarning bemalol joylashtirishiga imkon yaratmoqda"[4].

Bugungi murakkab axborot muhiti sharoitida yosh avlodda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ularning hayotiy maqsadlari va ma'naviy yo'nalishlarini ongli ravishda belgilashga ko'maklashuvchi mafkuraviy omillarga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

Siyosatshunos olim A.Muminov o'rinli ta'kidlaganidek, axborot insoniyat tarixining barcha davrlarida doimo ijtimoiy ongga va kishilar hatti-harakatiga ta'sir o'tkazishning eng muhim vositalaridan biri bo'lib kelgan [5]. Axborot davrining kirib kelishi bilan shaxsiy hamda ommaviy ongga axborot orqali ta'sir ko'rsatish mutlaqo yangi shakl va imkoniyatlarga ega bo'ldi. Tez sur'atlarda rivojlanayotgan kommunikatsiya texnologiyalari ideosferaning ham mahalliy, ham global qiyofasini tubdan o'zgartirib, inson tafakkuri va ongini uzoq muddatli istiqbolda qayta shakllantirmoqda. Bugungi jamiyatda odamlar o'zaro chambarchas bog'langan virtual makonda hayot kechirmoqda. Inson doimiy ravishda turli axborot oqimlaridan foydalanib, ilmiy yangiliklar, kashfiyotlar va ixtirolar yaratayotgan shaxslar bilan ma'naviy-ma'rifiy jihatdan hamnafas bo'lgan holda umumiy ijtimoiy hayot jarayoniga faol qo'shilib bormoqda.

Jamiyat ideosferasining barqarorligiga jiddiy xavf soluvchi omillardan biri inson ongini turli axborot kanallari orqali yashirincha yo'naltirish, ya'ni manipulyatsiya jarayonidir. Bugun axborot makoni yangi maqom kasb etib, o'z qoidalari va ta'sir mexanizmlarini jamiyat hayotiga tobora faol joriy etmoqda. Ayrim hollarda muayyan voqea yoki muammo faqat ommaviy axborot vositalarida yoritilgan taqdiridagina ahamiyat kasb etayotgandek qabul qilinadi. Shu orqali real

manzaradan ayrim dalillar va muhim masalalarni ataylab chetlab o'tish manipulyativ usul sifatida qo'llanishi mumkin.

Muayyan jamiyatdan tashqaridagi bu jamiyatni zaiflashtirish yoki yo'q qilishdan manfaatdor bo'lgan har qanday kuchlar muayyan ideosferali jamiyatni izdan chiqaruvchi manipulyatsiyani amalga oshirishi mumkin. Bunday holatda hodisa navbatdagi omilga – axborot urushiga mansub bo'ladi. Mazkur hodisa jarayonida axborot tizimlarining ish salohiyati ortib borgani sari o'q otar quroldan emas, balki axborot vositasidan foydalanishga ko'proq urg'u berilishi tabiiy. Bu jarayonda vayronkor nazariyalar turli axborot manbalari orqali keng tarqatiladi: matbuot nashrlari, ommaviy jurnallar, kino va adabiyot asarlari, shuningdek, ayrim siyosiy va madaniy arboblarning chiqishlari orqali insonning axborot muhiti to'liq qamrab olinadi. Natijada shaxs muayyan g'oyaviy ta'sir doirasida qolib, uni tanqidiy tahlil qilish imkoniyatidan mahrum bo'lishi mumkin.

Manipulyatsiya texnologiyalari rivojlanishning yuksak darajasida tursa-da, hamda bu muammo haqida fikr yuritmaydigan aksariyat kishilar hayotining ajralmas qismiga aylanmagan zamonaviy jamiyatda axborot u qadar xatarsiz narsa emas. Manipulyatsiyaning ongi umumiy qamrab olish xususiyatiga egaligi axborot xavfsizligiga tahdid soladi.

**Xulosa.** Axborotlashgan jamiyatning ideosferaga ta'sirini belgilovchi asosiy yo'nalishlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Axborot oqimlarining ko'payishi. Bunda internet, ijtimoiy tarmoqlar, telegram kanallar, YouTube va bloglar orqali juda katta hajmdagi axborot jamiyatga kirib kelishi orqali turli g'oyalar, qarama-qarshi fikrlar aralash holda tarqaladi. Bu esa o'z navbatida aholida turli fikrlar, yangi g'oyalar va hatto chalg'ituvchi yolg'on ma'lumotlarning tarqalishiga sabab bo'ladi;

- Mafkuraviy raqobatning kuchayishi orqali axborotlashgan jamiyatda turli siyosiy, diniy, milliy va ilmiy mafkuralar internet orqali tez tarqaladi. Bu ma'lum ma'noda mafkuraviy erkinlikni kengaytirgani holda, bir vaqtning o'zida ekstremistik va destruktiv g'oyalarning tarqalishiga ham yo'l ochib berishiga tabiiy hol sifatida qarash lozim. Jamiyat ideosferasida raqobat, kurash va ta'sir uchun muhit yuzaga keladi;

- Axborotlashgan jamiyatda har qanday odam axborot tarqatuvchiga aylanishi mumkin. Yolg'on axborot (feyklar), manipulyativ xabarlar va axborot urushlarining mavjud bo'lishi jamiyat ideosferasiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday vaziyatda jamiyat a'zolarida tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish ko'nikmalari shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -Toshkent.: Ma'naviyat, 2008. 111- b.
2. Globallashuv milliy qadriyatlar va yoshlar // Fuqarolik jamiyati. – Toshkent, 2008. – №1. – B. 20.
3. Muminov A. O'zbekiston: axborotlashgan jamiyat sari. –T., “Turon zamin ziyo”, 2013. – B. 35
4. Qarang: Shamsiyeva I. Yosh avlod ma'naviy rivojiga internetning ta'siri va axborot psixologik xavfsizlik muammosi // Ijtimoiy fikr – inson huquqlari. 2007. №1. – B. 172-173.
5. Muminov A. O'zbekiston: axborotlashgan jamiyat sari. –T., “Turon zamin ziyo”, 2013. – B. 47